XALQ DEPUTATLARI DO'STLIK TUMANI KENGASH
QARORI

2022 - yil 6 - yanvar VI-30-3-3-47-K/22 Do‘stlik tuman hokimligi

Do‘stlik tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2022-yilga belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasi hamda 437-moddalariga asosan 2022-yil uchun Do‘stlik tumanida belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarni mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2022-yilga yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq Do‘stlik tumani uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yuqorida 1-2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Daniyarov, tuman

moliya bo‘limi A.Latifov, tuman soliq inspeksiyasi M.Tursunmuratovlarga 2022-yildagi

byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror “Do‘stlik hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining dostlik.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Qaror 2022-yil 1-yanvaridan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Daniyarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Ш.Дарвишев**

Халқ депутатлари Дўстлик туман
Кенгашининг
2022 йил 6 январдаги
VI-30-3-3-47-K/22-сон қарорига
1-илова

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar

T/R	Hududlar	Koeffitsent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘ining stavkasi 2022-yil uchun (mln.so‘mda)
1	*2*	*3*	*4*
1	A.Navoiy MFY	1,04	34,8
2	G‘.G‘ulom MFY	1,04	34,8
3	Chinobod MFY	1,04	34,8
4	Sanoatchilar MFY	1,04	34,8
5	Mevazor MFY	1,00	33,4
6	Bog‘zor MFY	1,00	33,4
7	Saritepa MFY	0,96	31,9
8	Bunyodkor MFY	0,96	31,9
9	Qahramon MFY	1,00	33,4
10	Oltin vodiy MFY	0,96	31,9
11	Navro‘z MFY	1,00	33,4
12	Manas MFY	0,96	31,9

Халқ депутатлари Дўстлик туман
Кенгашининг
2022 йил 6 январдаги
VI-30-3-3-47-K/22-сон қарорига
2-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar

T/R	Hududlar	Koeffitsent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘ining stavkasi 2022-yil uchun (so‘mda)
1	*2*	*3*	*4*
1	A.Navoiy MFY	1,04	312,0
2	G‘.G‘ulom MFY	1,04	312,0
3	Chinobod MFY	1,04	312,0
4	Sanoatchilar MFY	1,04	312,0
5	Mevazor MFY	1,00	299,0
6	Bog‘zor MFY	1,00	299,0
7	Saritepa MFY	0,96	286,0
8	Bunyodkor MFY	0,96	286,0
9	Qahramon MFY	1,00	299,0
10	Oltin vodiy MFY	0,96	286,0
11	Navro‘z MFY	1,00	299,0
12	Manas MFY	0,96	286,0